PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

TALABALARDA IJTIMOIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TADBIQ ETISH

Soliyev Ilxomjon Sobirovich

FarDU, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Aripova Sevaraxon Ibrohimjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

ORSID – 0009-0008-5525-4549
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20302677

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faol kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish usullari hamda samarali metod va texnologiyalar tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyat sharoitida talabalarni ijtimoiy jihatdan faol, mas’uliyatli va tashabbuskor shaxs sifatida shakllantirishning dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy faol kompetensiya, talaba shaxsi, fuqarolik faolligi, pedagogik mexanizm, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta’lim**.**

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat bilimli mutaxassis, balki ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi shaxsni tarbiyalashdan iborat.Talabalarda ijtimoiy faol kompetensiyalarni shakllantirish demokratik jamiyat qurish, fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish va yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi O‘zbekiston Respublikasida “2030 yilgacha Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da milliy ta’lim tizimini yangi natijaga erishishga yo‘naltirishda “universal bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarning yangi tizimi, shuningdek, ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyat va shaxsiy mas’uliyat tajribasi, ya’ni zamonaviy asosiy kompetensiyalar” sifatida xizmat qiladi deb ta’kidlangan[1]

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar negizida mamlakatimizning buguni va ertasi bo‘lgan – yoshlarni ijtimoiy faol fuqaro sifatida tarbiyalash dolzarb masala sifatida ilgari surilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ijtimoiy faol barkamol yoshlarni tarbiyalash masalasiga to‘xtalib o‘tar ekan: 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz” degan ushbu murojaatlari zamirida ham ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni ijtimoiy faol fuqaro sifatida kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi.[2] degan fikrlari o’rinli ekanligini ta’kidlash joiz hisoblanadi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // PQ-4391-son

[2] Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 martdagi “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha muhim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yosh-avlod tarbiyasi to‘g‘risida shunday fikr bildirgan edi “Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il – qizlarimiz amal qilishlarini men juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq” dir deya ta’kidlagan.[3]

Talabalar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasi kompetensiya bilan uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz tadqiqot ishimizda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi talaba o’quv jarayonida shaxsiy faolligi, tashabbuskorligi, muammoning yechimi to‘g‘risida mustaqil qarashlari bilan javob bera olish psixologik xususiyatlari, mashg‘ulot olib borish jarayonida zamonaviy interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri tanlangani, talabada motivasiyaning ijtimoiylashgani bilan chambarchas bog‘liq ekanligini aniqladik.

Talabaning ijtimoiy faolligi oshirishda avvalo, o‘zini-o‘zi faollashtirish, o‘quv jarayonida erishgan yutuqlarini o‘zini-o‘zi baholash prinsipi asosida qurish muhim rol o‘ynaydi. Talabaning indivudual-shaxsiy javobi, o‘z o‘quv faolligini tahlil qilishga undovchi vaziyatlarga jalb etish zarur. Talaba uchun o‘quv mashg‘ulotidagi muvaffaqiyatlilikning bosh mezoni o‘qituvchi unga qo‘yadigan baho emas, balki aniq bir o‘quv yutug‘i, topshiriqni bajarishning mahsuldorligi bo‘lishi kerak. Talaba o‘z hatti-harakatlarining natijasini mustaqil baholash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘z xatolarini topish va to‘g‘rilash ko‘nikmasi o‘z irodasini rivojlantirishga bog‘liq.

Talaba o‘zining ijtimoiy loyihalari bilan, seminar treninglar va turli tashabbuskor, volontyorlik guruhlarida ishtirok etishning ijobiy tajribasi, fuqarolik sohasidagi faoliyatga nisbatan xavotirlanuvchanlikning pasayishiga ko‘maklashadi. Chunki, bularning barchasi tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, o‘zining ijtimoiy yo‘nalgan nuqtai nazarini himoyalashda qat’iyatlilikning, ya’ni individual sifatlarning rivojlanishiga ko‘maklashishi kerak.

Talabalarda qadriyatli yo‘nalganlik komponentlarini rivojlantirish zaruratiga ko‘ra ta’lim muassasasining demokratik hayot tarzi, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda zamonaviy qarashlarga murojaat etish zarur, chunki, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi maktab ta’lim tizimida (Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari, Ma’naviyat asoslari, Konstitutsiyaviy huquq asoslari) shakllantirilsa, oliy ta’lim tizimida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarni (O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi: Fuqarolik jamiyati, Umumiy pedagogika) fanlar orqali rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi.

Demak, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim-tizimida individual-shaxsiy yondashuvga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ta’lim muassasasining hayot tarzi - butun ta’lim muassasasi ijtimoiy hayotining demokratik uslubi, muhitini belgilovchi o‘quv-tarbiya jarayonining barcha elementlarining hamkorlikdagi tashkil etilishidir deb ta’kidlaydi.[4]

---

vazifalar”nutqi. 2020 y. 20 mart

[3] Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 30 b.

[4] Raximov B. Talaba-yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari.:

Pedagogik texnologiya deb, O Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi pedagogik texnologiyalar asosida shaklantirish masalasiga to‘xtalar ekanmiz. Eng avval, uning rivojlanish jarayoni va olimlar tomonidan bildirilgan nazariy fikrlariga alohida to‘xtalib o‘tamiz. «Pedagogik texnologiya» atamasi olimlar tomonidan turlicha talqin etib kelingan: N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayeva, O‘.Q.Tolipov, D.Ro‘ziyev, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov va boshqalar uni umumlashtirilgan jarayoni yoki o‘qitishni yaxshilash uchun xulq-atvor metodlar va tizimli tahlilni qo‘llashdan iborat bo‘lgan o‘quv vazifasini bajarish usuli sifatida tushunadilar.

S.Grebenyuk quydagicha ta’rif berib o‘tadi: «Pedagogik texnologiya – bu qoidalar va ularga muvofiq bo‘lgan o‘quvchining rivojlanishi, ta’limi va tarbiyasiga ta’sir etishning pedagogik usullari majmui».

N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayevalar pedagogik texnologiyaga quyidagi ta’rif berib o‘tadi: **“**pedagogik texnologiya-bu o‘z oldiga ta’lim shakllarini moslashtirish vazifasini qo‘yishni, texnika yoki inson resurslarini va ularning o‘zaro ta’siri aloqasini hisobga olgan holda yaxlit o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, amaliyotga qo‘llash va aniqlashning tizimli yondashuvidir”[5] deb ta’kidlaydi. Mutaxassislar tomonidan pedagogik texnologiyaning maqsadi va bosh vazifasiga ham alohida to‘xtalib o‘tgan.

Talabalarda ijtimoiy faol kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari

1. Kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish

Ta’lim jarayonida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy faoliyatni kuchaytirish talab etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv:

mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantiradi;
shaxsiy mas’uliyatni oshiradi.

2. Interfaol pedagogik texnologiyalar

Quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:
debat va munozaralar;
loyihaviy ta’lim;
keys-stadi usuli;
trening va seminarlar;
rol o‘yinlari.
Bu metodlar talabaning faol ishtirokini ta’minlaydi.

3. Talabalarning ijtimoiy loyihalarda ishtiroki

Ijtimoiy faol kompetensiyalar amaliy faoliyat orqali shakllanadi:
volontyorlik harakatlari;
yoshlar tashkilotlari faoliyati;
jamoatchilik tadbirlari;
ekologik va ijtimoiy aksiyalar.

4. Talabalar o‘zini-o‘zi boshqaruv tizimi

Talabalarni universitet boshqaruviga jalb etish:
liderlikni rivojlantiradi;
tashabbuskorlikni oshiradi;
demokratik madaniyatni shakllantiradi.

---

dis...p.f.d.– T, 2007. – 88-92 b.

[5] Avliyaqulov N.X., N.N.Musayeva Pedagogik texnologiya.: “Tafakkur Bo‘stoni”.: 2012 y. 17 -19 b.

5. Raqamli ta’lim muhitidan foydalanish
Onlayn platformalar orqali:
ijtimoiy muloqot kengayadi;
jamoaviy loyiha ishlari rivojlanadi;
Mexanizmlarni tadbiq etish bosqichlari
Ijtimoiy faol kompetensiyalarni rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:
Diagnostik bosqich — talabalarning ijtimoiy faollik darajasini aniqlash.
Rejalashtirish bosqichi — pedagogik strategiyalar ishlab chiqish.
Amaliy bosqich — metod va texnologiyalarni qo‘llash.
Monitoring va baholash — natijalarni tahlil qilish.
Tadqiqot natijalari va muhokama
Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalar:
jamoada ishlash,
ijtimoiy tashabbus ko‘rsatish,
muammolarni hamkorlikda hal qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Mashg‘ulot jarayonida innovasion pedagogik tenologiyalardan foydalanib olib borishda avvalo, talabaga mustaqil egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar, pedagogik-psixologik jihatdan keng ma’lumotlarni tahlil qilish, qobiliyat, pedagogik tafakkur va pedagogik odob, pedagogik texnika, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ma’naviy yetuklik, tashkilotchilik, matonat, pedagogik layoqatga ega bo‘lish, talabchanlik, qat’iy intizom kabi sifatlarni tarkib toptirish eng asosiy sifatlardan hisoblanadi. [42; 424-b.]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yosh-avlod maslasiga to‘xtalar ekan: “zamonaviy bilim va kasb – hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el – yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga chiqib, bugungi kunda hayotning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz” degan ushbu ta’sirli so‘zlari ham yoshlarimizning ijtimoiy faolligini oshirishda davlat rahabarining e’tiborida ekanligi bilan muhim va beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda birinchi galda ijtimoiy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish ham muhim o‘rin tutadi. B.Shermuhammadov o‘z tadqiqot ishida ijtimoiy hamkorlik masalasiga to‘xtalar ekan. Ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarning umumiy maqsad yo‘lida birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat olib borishi, o‘zaro hamjihatligidir[124; 53-b.] deb ifodalagan. Ijtimoiy hamkorlikni o‘rnatishda ijtimoiylashuv ham muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiylashuv-inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi normalar va qadriyatlar tizimining o‘zlashtirilishi jarayoni izchil ravishda amalga oshirib boriladi.

Xulosa
Talabalarda ijtimoiy faol kompetensiyalarni rivojlantirish oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Pedagogik mexanizmlarni kompleks ravishda joriy etish orqali talabalar shaxsining ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyati va professional tayyorgarligi oshadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va kasbiy tayyorgarlik asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.

3. .Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2012.
4. Qurbonov Sh.E. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent, 2016.
5. Ishmuxamedov R.J. Innovaцion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2014.
6. Yo‘ldoshev J.G. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2018.
7. Abduqodirov A.A. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2017.
8. Raximov A. Shaxs kamoloti va ijtimoiy faollik. – Toshkent, 2013.
9. Zimnyaya I.A. Klyuchevьe kompetenцii kak rezulьtat obrazovaniya. – Moskva, 2004.
10. Bandura A. Social Learning Theory. – New York, 1977.